

RAHMATULLA BARAKAYEV SHAXSIYATIGA CHIZGILAR

G‘ayrat Murodov

filologiya fanlari doktori, professor (Buxoro)

Respublikamiz adabiyotshunoslari va yosh tadqiqotchilari yaxshi taniydigan va nomini hamisha hurmat-ehtirom bilan tilga oladigan Rahmatulla Barakayev shaxsiyati haqida ko‘p yillik kuzatishlar asosida yuzaga kelgan fikr-mulohazalar xayol olamimning bir sarhadida birin-ketin to‘planib, quyidagicha tizila boshladi:

1. Olim tabiatidagi birinchi navbatda yarq etib ko‘zga tashlanadigan fazilat uning tanish va notanish odamlarga nisbatan xayrixohligi, ularga biror-bir yaxshilik qilish, hech bo‘lmaganda to‘g‘ri maslahat berish, ruhan-ma‘nan qo‘llab-quvvatlashga harakat qilganida ko‘rinadi. U ko‘p yillardan buyon mamlakatimiz Fanlar akademiyasiga qarashli Til, adabiyot va folklor instituti huzuridagi ilmiy kengash kotibi sifatida ishlab keladi.

Men 2017-yil oktyabr oyidan to 2018-yil iyunigacha doktorlik ishim himoyasi sababli Rahmatulla Barakayev kabinetida ko‘p marta bo‘lganman. Shu muddatda mazkur institutda ishlaydigan ilmiy xodimlardan tashqari dissertatsiyasini boshqa ilmiy kengashlarda himoya qiladigan tadqiqotchilar ham himoyaga oid hujjatlarini u kishiga ko‘rsatib maslahat olganlarining guvohi bo‘lganman. Men shunday dissertantlardan biridan: “O‘zlaringizda ham kengash kotiblari bor-ku, nega ovora bo‘lib, shuncha yo‘l bosib bu yerda kelasizlar?” – deb so‘raganimda, u: “Har kasbda katta tajriba to‘plagan, ishning eng nozik sirlarini egallagan, ustoz darajasiga erishgan insonlar bo‘ladi. Rahmatulla akani kengash kotib sifatida ana shunday ustoz deb bilamiz. Shu sababdan ishimizning kamu ko‘stini to‘g‘rilash uchun bu dargohga kelamiz”, - deb javob qaytargan edi.

2. Yana bir hurmatga loyiq xislatlaridan biri nafaqat mas‘ul xodim, shuningdek, inson sifatida hamisha qat‘iy intizom-tartib asosida o‘z hayoti va faoliyatini yo‘lga qo‘yganligida ko‘rinadi. To‘g‘risi, har hil ehtiyoj tufayli turli tashkilotlarda bo‘lib turamiz. Ko‘pincha o‘zimizga kerak bo‘lgan xodim ertalab kech ishga kelib, tushlikka vaqtdan avval chiqib ketgani, bu ham yetmagandek tushlikdan ham kechikib kelganini ko‘p bor ko‘rganimiz bor. Men qachon Til, adabiyot folklor institutiga kelsam, Rahmatulla Barakayevning hamma vaqt o‘z ish o‘rnida bo‘lganini ko‘rardim. Faqat bir marta qandaydir ish bilan kabinetlariga kelsam, eshik berk ekan. Yon tarafdagi eshikni ochib, u yerda ishlab o‘tirgan yigitdan surishtirdim. U: “Ustozni Fanlar akademiyasi hay‘atiga chaqirtirishdi. Meni so‘rab kelganlar yo‘lakda kutib o‘tirmay, kabinetga kirib o‘tirsinlar, deb aytib ketdilar”, - degancha menga xona kalitini uzatdi.

O‘zbekiston xalq shoiri Shukrullo xotirlashicha, taniqli davlat arbobi va yozuvchi Sharof Rashidov u bilan bo‘lgan bir suhbatda: “Sen, yaxshisi, ishga bor-u, ishing tugagach, darrov uyga qayt”, - deb maslahat bergan ekan. Bunday fikr behikmat emas. Ko‘cha-ko‘yda har xil odamlar, kerak-nokerak gap-so‘zlar bo‘ladi. Bunday suhbatlarga beixtiyor qo‘shilgan odam biror tuhmat yoki yomonlikka uchrab qolishi hech gap emas.

Rahmatulla Barakayev o‘z hayotida ana shu hikmatga amal qilib yashagan insonlar sirasiga mansub. Uni kunduzlari ishxonadan, oqshom va dam olish kunlari uyidan topasiz.

Qat’iy intizom ayrim oilalarda qattiqqo‘l ota yoki ona tomonidan bolalarga o‘rgatiladi, ayrim kishilar esa harbiy xizmatda bunday xislatga ega bo‘ladilar. Rahmatulla aka o‘zaro muloqotlardan birida bolaligida salomatligi tufayli maktab-internetda o‘qiganligi haqida aytgan edi. Shunda men Abdulla Qahhor va Asqad Muxtorning shunday xildagi ta’lim dargohlarida yashab o‘qiganlarini eslagandim. Maktab-internat ularni nafaqat tashqi, ichki intizom, mehnatsevarlik, kamtarlik va ishchanlikka o‘rgatgan.

3. Adabiyotshunosning men ilg‘agan yana bir fazilati shundaki, u hamma haqida doimo yaxshi gumonda bo‘lib, o‘zi bilgan odamlarning ibratli, namuna bo‘ladigan ishlari, odatlari, ezguliklari haqida gapiradi, hatto boshqalar uncha yoqtirmagan kishilarda ham bir talay durust xususiyatlar borligini aytib, bun fikrini o‘zi ko‘rgan dalillar, sabablar bilan isbotlashga harakat qiladi. Shunday kishilar borki, ular faqat boshqalardagi kamchilik-nuqsonlarni ko‘radilar. Iso alayhisalom bunday kimsalarga qarata: “Birodaring ko‘zidagi xasni ko‘rasan-u, o‘z ko‘zingga tushgan xodadan bexabarsan”, - deb aytgan ekan. Buyuk so‘z san’atkori Lev Tolstoy dunyoga mashhur “Urush va tinchlik” roman-epopeyasida xotinboz, janjalkash, maishatparast Doloxov degan zobitning bittagina bo‘lsa ham namuna olishga arzirli xislati borligini ko‘rsatib o‘tishni unutmagan: bu ko‘pchilik yomon ko‘radigan kishi onasi, erga tegolmay qolib ketgan singlisini juda yaxshi ko‘rar, ularni dunyodagi eng pokiza ayollar deb bilar ekan. Chindan ham har bir inson – o‘ziga xos bir olam. Insonga yaxshi nazar bilan boqsang, u ham senga shunday nigoh bilan qaraydi, aksincha bo‘lsa butun dunyo senga yovuzlar saltanati tarzida ko‘rinishi mumkin. Din-diyonat, e’tiqod va insonparvarlikning qo‘hna maskanlaridan biri bo‘lgan Buxoroi sharifda tavallud topib ulg‘aygan Rahmatulla Barakayev ezgu niyat, ezgu fikr va va ezgu amalning qadr-qiymatini juda yaxshi biladi ularni o‘z hayotining ustuvor dasturi sifatida tanlab olgan.

4. Ko‘pchilik Rahmatulla akani bolalar adabiyoti tadqiqotchisi, shu sohaning fidoiy, zahmatkash vakillaridan biri sifatida taniydi. Chindan ham shunday. U mazkur yo‘nalishda e’tiborga loyiq ishlar yozgan, bir qancha shogirdlari

dissertatsiyalar yozib himoya ham qilishgan. Shu bilan birga, e’tirof etish lozimki, u jahon, xususan, milliy adabiyotimiz namoyandalari hayoti va ijodini, ular yaratgan badiiy durdonalarning ahamiyatini ham juda yaxshi biladi. Ko‘p yillar davomida yurtimizning yetakchi filologik ilmiy markazida ishlash davomida Izzat Sulton, Matyoqub Qo‘shjonov, Abduqodir Hayitmetov. To‘ra Mirzayev, Erik Karimov, Naim Karimov, Baxtiyor Nazarov, Bahodir Sarimsoqov, Ibrohim Haqqul singari atoqli olimlar davralarida, suhbatlarida bo‘lgan. Tabiiyki bunday jonli va tabiiy ilmiy muhit uning dunyoqarashi va tafakkurini kengayishi va teranlashuviga sabab bo‘lgan. Ushbu fikrimni birgina dalil bilan bo‘lsa-da, isbotlashga harakat qilaman.

O‘tgan asrning saksoninchi yillari boshlari edi. Men professor Erik Abdullayevich Karimov rahbarligida nomzodlik tadqiqoti ustida ishlar, oyda, bir yarim oyda Buxorodan Toshkentga kelib turardim. Ba’zan, vaqt bo‘lganda, R. Barakayev xizmat xonasiga kirib gaplashib o‘tirardim. Shunday suhbatlardan birida u atoqli shoir va adib, akademik Oybekning jadid harakatiga munosabati haqida gapirib qoldi. Oybek ijodiy faoliyatining boshlarida jadidchilikka xayrihoh bo‘lgan, u o‘qigan texnikumdagi ustozlari mazkur ma’rifatparvarlik oqimining buyuk maqsadlaridan saboq berishgan ekan. Shoirning qaynotasi ham Turkiston jadidchiligining ko‘zga ko‘ringan namoyandaridan biri bo‘lgan. Bu kabi ma’lumotlar u vaqtlarda matbuot va ilmiy manbalarda oshkor etilmas edi. O‘sha davr siyosati va mafkurasi jadidchilikni qoralar, uning atoqli namoyandalari Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidov va yana bir talay jadidlarning nomlari hali oqlanmagan edi. Ana shunday vaziyatda Til va adabiyot institutida jadidchilikni himoya qilishga jur‘at etgan mard olimlar ham faoliyat ko‘rsatgan. Rahmatulla Barakayevning Oybekning jadidchilikka munosabati xususidagi xayrixohona qarashlarida, fikrimcha, ana shunday fidokor allomalarning ta’siri bo‘lgan.

5. Tadqiqotchining aytishga arzigulik yaxshi jihatlaridan yana biri ilm jabhasidagi kamtarligi, unvonu darajalarga ruju qo‘ymaganligida namoyon bo‘ladi. Aytganimizdek, u ko‘p yillar davomida ixtisoslashgan ilmiy kengashda mas’ul lavozimda ishlagan. Bolalar adabiyoti muammolari bo‘yicha tadqiqotlari bemalol bir doktorlik dissertatsiyasiga yetib, ortib ham qoladi. Shunga qaramay, bu ishlarini himoya sahnasiga olib chiqmadi. Bir kuni o‘zaro suhbatida buning sababini so‘raganimda: “Men bu ishni o‘zim uchun shart deb hisoblamaganman”, - deb javob bergan edi. Chindan ilm-fan maydonida munosib o‘rin egallash uchun albatta fan doktori ilmiy darajasiga ega bo‘lish zarur emas. Bu nuqtayi nazarni Ozod Sharafiddinov, Yoqubjon Is’hoqov, Ibrohim G‘afurov kabi atoqli olimlarning faoliyati isbotlab turibdi.

Ajoyib inson, ko‘pchilik yosh filologlar ustoz deb biladigan zahmatkash olim Rahmatilla Barakayev qutlug‘ yetmish yoshni qarshi olmoqda. Chin olim uchun bu katta tadqiqotlar, ibratli xotiralar yaratish mavsumining boshlanishidir. Bugun ustoz adabiyotshunos darajasiga yetgan olimni muborak sana bilan qutlab, ezgulik faoliyatiga rivoj tilab qolamiz.